

**SURXON NASRINING SHAKLLANISHI****Ubaydullayeva Jamila Xurramovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi,

**Ko'charova Dildora Karim qizi**Denov tadbirkorlik va pedagogika institute Boshlang'ich ta'lim va sport  
tarbiyaviy ishi yo'nalishi talabasi**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Surxon adabiy muhitida nasriy janrning paydo bo'lishi, taraqqiy etishi, nasrda ijod etgan ijodkorlarning ijodiy faoliyati haqida so'z yuritildi.

**Kalit so'zlar:** Nasr, olis hudud, mashhur Termiziylar, jadid nasri, voha nasri.

Surxondaryo vohasi tarixda o'zining munosib o'rniga ega. Shubhasiz, insoniyat tamadduni shakllanishida, Sharq ilm-u fani ravnaq va rivojida bu o'lkaning o'z o'rnini bor. Surxon vohasining buyuk va shonli tarixiga Teshiktosh va Machay g'orlari, Zarautsoy qoyatosh rasmlari, Sopollitepa, Jarqo'ton, Molalitepa singari manzilgohlar, Ayritom, Dalvarzintepa, Xolchayon va Fayoztepadan topilgan arxeologik topilmalar ham guvohlik beradi. Bu o'lka Baqtriya, Kushonlar, Xioniylar, Eftaliylar, Arab xalifaligi, Xorazmshohlar, Mo'gullar, Temuriylar, Buxoro amirligi kabi buyuk davlatlarning asosiy shaharlaridan biri bo'lgan. Bu diyor bag'ridan ko'plab olimlar, shoirlar, adiblar, polvonlar chiqqani, ayni haqiqat.

Surxon vohasining o'ziga xos manzarasi, sir-u sinoatga boy tabiati, moziydan sado berib turadigan tarixiy obidalari, dostonlari, qo'shiqlarga boy xalq og'zaki ijodiyoti bu yurtdan ko'plab adib-u ulamolar, shoir-u fuzalolar yetishib chiqishiga sabab bo'lgan. IX-X asrlarda surxon vohasining markazi - Termizda ko'plab dunyoviy va islomiy ilmlar namoyandalari yetishib chiqqanliklari ham ma'lum.

Vohadan yetishib chiqqan buyuklar haqida gap ketar ekan Termiziylar va Chag'oniylar haqida gapirmaslikning imkoni yo'q. Termiziylar va Chag'oniylar soni biz bilganimiz va o'ylaganimizdan ko'ra ko'proqni tashkil etadi. "Buyuk Termiziylar"<sup>1</sup> kitobida oz emas, ko'p emas naq 90 nafar aziz-avliyo, ulamo va fuzalo, shoir va adib Termiziy xamda Chag'oniylar zikr qilingan. Hakim at Termiziy, Varroq at Termiziy, Abu Iso Muhammad at Termiziy, Munjik Termiziy, Adib Sobir Termiziy kabi alloma va shoirlarni shular qatoridagi eng taniqli shaxslar sifatida ko'rsatish mumkin.

Yuqorida nomlari zikr etilgan ajdodlarimiz nafaqat mamlakatimiz balki dunyo tamadduniga o'zlarining beqiyos hissalarini qo'shishgan desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Chunonchi, Fariduddin Attor "Tazkirat ul-avliyo" asarida Muhammad ibn Ali Hakim Termiziyini: "U zot

<sup>1</sup> Буюк Термизийлар: Термиз тазкираси / Мусанниф Мирзо Кенжабек. - Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. - 528 бет.

ilm-fan soxalarida komil, shariat va tariqatda mujtahid edi... U olimi Rabboniy bo‘lib, ummatning xakimi edi. Bag‘oyat xikmat soxibi bo‘lganidan, u zotni “Hakim ul-avliyo” (“Avliyolar hakimi”) deb atashardi...” - desalar, hazrat Alisher Navoiy: “Ko‘p hadisi bor va zohir karomati va tasnifi dagi bor”, - deb ta’riflaydilar. Islom olamida ul zotning o‘rinlari eng baland pog‘onalarda deb belgilanadi. “Ilal ashshariat va xatm ul-Asliyot” asari islom nazariyotchilari tomonidan eng ko‘p eslanadigan kitoblardan biri. Boshqa muhim asarlari “Kitob an-nahi” (“Yo‘riqnoma kitobi”), “Kitob al-furuh” (“Ollodan qo‘rquvchilar haqida kitob”), “Navro‘znomai Xoja Hakim Termiziy”. U Abu Ali aljuzjoniy, Abu Bakr Varroq va boshqa mashhur olimlar ustozidir. Andalusiyalik yirik islomshunos Muhyiddin ibn al-arabiy (1165—1240) o‘zini Hakim Termiziyning shogirdi deb hisoblagan.

Surxondaryo viloyatida yashagan mashhur muhaddis Imom Termiziy hadislarni to‘plab bir qancha asarlar yaratgan. “Al-Jomi’ as-sahih” yoki “Sunani Termiziy”, “Kitob al-ilal”, “Kitob az-zuhd” va boshqa shular jumlasidandir. U Imom Buxoriyning mashhur shogirdi va izdoshi hisoblanadi.

Olimlik bilan bir qatorda badiiy adabiyotda ham qalam tebratgan termiziylar bisyor. Ular qatoriga Munjik Termiziy, Adib Sobir Termiziy, Javhariy Zargar Termiziy, Jamoluddin Abu Bakr Hol Termiziy kabi ko‘plab ijodkorlarni kiritish mumkin.

Surxondaryoning Oltinsoy hududida tasavvuf ilmining pirlaridan bo‘lgan ijodkor So‘fi Olloyorning maqbaralari mavjud. Tarixdan ham ma’lumki So‘fi Olloyor aynan o‘sha hududda ijod bilan shug‘ullangan. Uning ijodiy me’rosi adabiyotimiz mulkining eng qimmatli manbalaridan hisoblanadi. Surxon vohasida X-XII asrlarda yashab o‘tgan Daqiqiy, Farruhiy kabi yirik shoirlar mashhur.

Chingiz bosqini tanazzulidan keyin, XVI-XIX asrlardan yana Termiziy taxallusi bilan bir turkum shoirlar paydo bo‘ldi. Ular Umar at-Termiziy as-Sufiy, Mavlono Qudsiy Termiziy Maxjub, Xoja Samandar Termiziy, Abdulloh Termiziy, Taqiy Termiziy va Masiho Boysuniylar edi.

Adabiy badiiy asarlar yaratilishi va mazmun mohiyatiga ko‘ra adabiyotshunos olimlar tomonidan asosan uchta adabiy turga bo‘lib o‘rganilishi hech bir ilm ahliga sir emas. So‘zimiz avvalida yodga olganimiz, surxon adabiyoti vakillari, Termiziylar hamda Chag‘oniylar nazm yo‘lida ijod qilishgan. Umuman Musulmon Sharqi adabiyoti shakllangan davrlardan to XIX-XX asrlarga qadar ham nazm peshqadam bo‘lib kelgan, nasrda yaratilgan asarlar esa ko‘p hollarda badiiy adabiyotga emas ilmiy sohalarga taalluqli bo‘lgan.

Umuman butun jahon yozma adabiyotida ham nasriy asarlar nazmiy asarlarga nisbatan bir qadar kechroq paydo bo‘ldi.

O‘zbek jadidchilik harakatining yirik arboblardan biri Fitrat “Munozara” asari bilan jadid nasrini, aytish mumkin bo‘lsa, yangi o‘zbek nasrini ham boshlab berdi. Ushbu asari bilan Turkistondagi vaziyatga chet kishi ko‘zi bilan qarab, undagi chirkin tomonlarni shafqatsiz tarzda ochib tashladi.

Jadid nasrida realistik an'analarni boshlab bergan Cho'lpon, Mirmuhsin Shermuhamedov, Hamza, Toshqin va boshqalar Fitratdan farqli o'laroq Turkiston xalqlari hayotining mudhish manzaralarini tasvirlash va xalqqa milliy taraqqiyot manzillarini ko'rsatish yo'lidan bordilar. Cho'lpon "Qurboni jaholat" hikoyasida o'lkaning zaharlangan muhiti har qanday yangi shabadani ham yutib yuborishi mumkinligini haqqoniy ko'rsatdi. Shu yillari Mirmuhsin Shermuhamedov ham badiiy nasr bilan qiziqib, "Befarزند Ochildiboy" asarini yozdi. Muallif bu asarini garchi roman deb atagan bo'lsa-da, bu davrda hali jadid nasri yetarli badiiy tajribaga ega bo'lmagan vaqtda o'zbek romanining tug'ilishi mahol edi.

Mo'minjon Muhammadjon o'g'li (Toshqin) ham shu yillari nasr sohasida qalam tebratib, "Eski maktab turmushi yoki Tolib" degan qissasini yozdi. Qissa asosida yotgan voqealar eski maktab va eski tarbiyaning yosh avlodni yangi zamon talablari ruhida tarbiyalashga qodir emasligini ko'rsatadi. Yosh avlod tarbiyasi masalasiga bag'ishlangan yana bir asar Hamza qalamiga mansub "Yangi hayot yoxud Milliy roman" asaridir. Hamza bu asarida Olimjon ismli yigitning murakkab hayot yo'lini tasvirleydi. Hamza asarda o'qimagan ota va o'qigan o'g'il taqdirini o'zaro qiyoslab, ilm-ma'rifatning insoniyat hayotidagi va jamiyatdagi o'rni-ahamiyatini ochishga va buni ommaga singdirishga uringan.

Shunday qilib, jadid nasrida o'zbek adabiyotida ilk bor realistik qissa, hikoya, ocherk va esse-dialog janrlarining namunalari yaratildi. "20-yillar o'zbek adabiyotining asosiy yutug'i yetuk realistik hikoya, qissa, roman, drama namunalari va yangicha she'rish shakllarning paydo bo'lishi bilan ham belgilanadi",<sup>2</sup> – deydi professor S.Mirzayev.

Shuningdek, XX asr boshlarida vaqtli matbuotning paydo bo'lishi, gazeta va jurnal sahifalarida yuqorida e'tirof etilgan va etilmagan ko'plab nasriy asarlarning e'lon qilinishi bilan zamonaviy realistik o'zbek nasri uzil-kesil shakllandi. Bu nasr mumtoz o'zbek adabiyotidagi nasrdan dastavval ijobiy va salbiy qahramonlar obrazi, syujet va kompozitsiyasi, badiiy konfliktga egaligi, hayotiy yoki afsonaviy-fantastik voqealarni muayyan badiiy til va uslubda tasvirlab berganligi hamda badiiy qonuniyatlarga to'la rioya etib yozilganligi bilan farqlanadi.

Surxondaryo nasrining shakllanishi ham o'zbek adabiyotida nasrning shakllanishi kabidir. Faqat bu narsa vohada nisbatan kechroq yuzaga chiqqan. Buning o'ziga yarasha ijtimoiy hamda tarixiy sabablari borki, barchasi chekka hududga yangiliklar markazga nisbatan keyinroq yetib kelishi bilan izohlansa, xato bo'lmaydi. Turkiston o'lkasi rus mustamlakachilari tomonidan egallanganidan so'ng barcha sohalarda bo'lgani kabi adabiyotda ham yangiliklar bo'ldi. Xalq uchun rus tilini bilish zaruratga aylana bordi. Behbudiy zarur deb aytgan tillardan eng asosiysi shu rus tili bo'ldi.

Avvalo ziyolilar orasidan rus tilini biladigan kishilar rus tili orqali har sohadagi yangilanishlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'lishdi. Adabiyot sohasi ham, bundan mustasno qolmadi.

<sup>2</sup> Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. –T.: Yangi asr avlodi, 2005. 38- b.

<sup>3</sup> Behbudiy M. Ikki emas, to'rt til kerak. «Oyna» jurnali, 1913 yil, 1-son, 12–14-betlar.

So‘z san‘ati ixlosmandlari rus adabiyoti namoyandalarining asarlarini mutolaa qilib ular yozgan yo‘sinda asar bitishga ham urinib ko‘rganlar. O‘sha vaqtlarda rus adabiyotida nasriy asarlar ko‘plab yaratilgan va yaratilayotgan edi. O‘zbek yozuvchilari uchun rus tili va rus adabiyoti adabiyotdagi shakliiy hamda mazmunii yangilanishlar uchun eng katta vositalardan biri bo‘ldi.

Shu bilan birgalikda mahallii matbuotning paydo bo‘lishi har qanday yangiliklarni bir qadar tez fursatda ommaga yetkazishning samarali usullaridan biri bo‘ldi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Matbuotda turli xabarlar va yangiliklar bilan birgalikda badiii adabiyot namunalari ham o‘rin olgan, albatta. Shu orqali adabiyotda bo‘layotgan jarayon keng yoyilgan, ommaga singishgan. Nasriy asarlarning tez orada bu qadar rivojlanishi ularning nazmiy asarlarga nisbatan xalq tiliga yaqinligi va tushunarlii edi. Chunki so‘zlashuvda so‘zlar vaznga solinib she‘r kabi aytilmaydi. Oddii xalq uchun shundoq kelganini kelganidek gapirish qulay, bu jihatdan nasriy asarlar keng omma uchun mos kelgan. Eski she‘riyatda esa asosan, qofiiya uchun ishlatiladigan yot tilga oid so‘zlar ko‘plab uchragan, bundan ham tashqari murakkab she‘rii jumlar ham oddii kishilar uchun qiyinchilik tug‘dirgan.

Yuqorida aytilgan adabii turlarning yetakchilik mavqei, birida ko‘proq, ikkinchisida sustroq ijod qilinishi jarayoni “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da quyidagicha ifodalangan: “Adabii turlarning muayyan davr adabii jarayonida tutgan o‘rni, mavqei har vaqt ham bir xil emas, taraqqiyotning ma‘lum bosqichlarida ularning ayrimlari yetakchilik mavqeini egallaydi. Bu esa turli omillar (ijtimoiy-siyosii, madanii-ma‘rifii sharoit, adabii-madanii an‘analar va h.) bilan bog‘liqdir. Mas., o‘zbek adabiyotida an‘ana bilan bog‘liq holda uzoq vaqt lirika yetakchilik qilgan bo‘lsa, XX asr boshlaridan epos yetakchilik mavqeini egallay boshladiki, bu ijtimoiy-siyosii, madanii-ma‘rifii sharoit (epik turda badiii konseptual funksiyani amalga oshirish, dunyoni anglatish imkoniyatlarining kengligi va buning XX asr boshlarida dolzarblik kasb etgani) bilan izohlanadi”<sup>4</sup>.

Ulkan daryolar irmoqlardan hosil bo‘lganidek, millii adabiyotimizning shakllanish jarayonida viloyatlar adabii-badiii harakatchiligining o‘rni beqiyosdir. Hozir Toshkentda yashab ijod qilgan va qilayotgan, bugungi kunda adabiyotimizning taniqli namoyandalariga aylangan Sh.Xolmirzayev, T.Murod, E.A‘zamov, N.Normatov, U.Azim, M.Kenjabeq, S.Sayyid, E.Shukur va boshqa bir qator ijodkorlar surxon vohasida dunyoga kelgan. Surxonning o‘ziga xos tabiati: tog‘lari, keng yaylovlari, dashtlari, sodda va samimii odamlari, yaqinlarining ta‘siri kabi unsurlar aytib o‘tilgan ijodkorlarning ijodii dunyosi shakllanishida muhim vazifa bajarganligi shubhasiz. Shuning uchun ham ularni surxon adabii muhiti vakili deb qo‘rmasdan keltira olamiz.

Shunday katta ilmiy va badiii salohiyatga ega bo‘lgan surxon adabii muhiti keyingi yillarda gullab yashnashda davom etmoqda. Ayniqsa, 60- yillardan boshlab she‘riyatda T.Saydaliyev, R.Uzoqova, Sh.Rahmatullayev, B.Sodiqov, B.Yoriyev, Y.Shoyardonov, A.Rahmonov;

<sup>4</sup> Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr, 2013. 20-b.

publitsistikada N.Hayitqulov, X.Eshonqulov; dramaturgiyada I.Otaqulov, X.Xursandov, E.Norsafar; nasrda esa M.Safarov, I. Norboyev, S.Kokilov, X.Maqsadqulov, J.Ergasheva, singari ijodkorlar voqea adabiy jarayonida faol ishtirok etdilar va etib kelmoqdalar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Буюк Термизийлар: Термиз тазкираси / Мусанниф Мирзо Кенжабек. - Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017.
2. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. –T.: Yangi asr avlodi, 2005.
3. Behbudiy M. Ikki emas, to'rt til kerak. «Oyna» jurnali, 1913 yil, 1-son.
4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: Akademnashr, 2013.